

INSONIYAT TAFAKKURINING ILK MAHSULI – MIFLAR

*Qo'qon universiteti Andijon filiali
Ijtimoiy – gumanitar va pedagogika fakulteti*

Filologiya fani yo'nalishi

Muhtorova Shoiraxon Abduhalil qizi

Filologiya fani yo'nalishi

Abdusalomova Mashhura Isomiddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada miflarning mazmuni, nech turlari turga bo'linishlari va ularning xalq ijodiyoti madaniyatidagi ahamiyati haqida so'z yuritiladi. Miflar insoniyat tafakkuring ilk bosqichini aks ettirib o'zida mujassam etadi. Mif orqali xalqning dunyo qarashini orzu va ruhiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mif, mifalogiya, mifning turlari, afsona, dualistik mif, manistik mif, esxotologik mif, mifalogik obrazlar, mifalogik maktab.

KIRISH

Qadimgi odamning olam va borliq haqidagi ibtidoiy tasavvurlarining majmui bu- mif hisoblanadi. Mif yunoncha mifhos- afsona, rivoyat, asotir, ibtidoiy kishilarning ongi va tushunchasi inson tabiat va jamiyat hodisalarining aks etishidir. Qadimdan beri odamlar atrofdagi voqealar tabiat hodisalari yoki hayotdagi sirli narsalarni tushunishga harakat qilishgan. Ilm fan hali yo'q paytda ular o'zlarning tasavvurlariga tayanib turli hikoyalar to'qishgan. Bizga ham bu mavzu juda ham qiziq tuyildi chunki miflar orqasidan inson tafakkurining ilk izlari yotadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Ilmiy bilimlar tizimi ijtimoiy ong shakllaridan biri bu – fan hisoblanadi. Fan – o'zining ilmiy tushuncha uslublari va metodologiyasiga ega bo'lgan olamni bilish va o'zlashtirishning maxsus usuli ilmiy bilimlar tizimidir. Olam tabiat hodisalari va ijtimoiy hayot hususidagi qadimgi fantastik tushunchalarni o'zida aks ettirgan miflar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Ibtidoiy haqida miflar (olamning yaratilishi va yerda hayotning paydo bo'lishi haqidagi miflar.)
- Samoviy miflar (osmon jismlari va tabiat hodisalarining paydo bo'lishi haqidagi miflar.)
- Antropogenik miflar (g'yni oddiy xislatga ega bo'lgan afsonaviy personajga ega bo'lgan miflar.)
- Kult miflar (muayyan e'tiqodiy ishonchlar bilan bog'liq miflar.)

- Totemistik miflar (totem-ajdod haqidagi qadimgi tasavvurlar asosida paydo bo'lgan.)
- Kalendar miflar (yil, oy, kun hisobi bilan bog'liq miflar)
- O'lib – tiriluvchi tabiat kultlari haqidagi miflar.
- Animistik miflar (jon haqidagi qadimgi tasavvurlarni o'zida mujassamlashtirgan miflar.)
- Manistik miflar (ajdodlar homiyligi haqidagi miflar.)
- Dualistik miflar (ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash haqidagi asotiriy qarashlarni o'zida aks ettirgan miflar.)
- Esxotologik miflar (olamning intihosi oxir zamon to'g'risidagi miflar.

Turli xalqlarning olamning yaratilishi, tabiat hodisalari, fantastik mavjudotlar xudolar va qahramonlar va ular bilan bog'liq hodisalar haqidagi tasavvurlarni ifodalab ma'lum bir tizimga solingan shakli- mifologik dunyo qarash deb yuritiladi. Bu tizimga solishning muhim shakllari epos, ertaklar, afsonalar, rivoyatlar bo'lib miflar eng avvalo ular orqali ifodalanadi. Shu yo'sinda jamlangan bilim va tajriba avloddan avlodga o'tishini ham ta'minlaydi. Mifologik dunyoqarashda tabiat narsalari va hodisalari inson bilan bir xil qonunda muvofiq yashaydi, inson bilan birxil sezgilar va xoxishga ega bo'ladi. Shuningdek, unda ulkan olam doirasida unyoning cheksiz rang – barangligi vujudga keladi va har bir dunyo o'z makon va vaqtiga ega bo'lishining guvohi bo'lishimiz mumkin. Mifologik dunyo qarashning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki' bu oddiy rivoyat emas balki og'zaki muqaddas matnning arxaik ongda voqea – hodisalarga odamga va u yashayotgan dunyoga ta'sir ko'rsatuvchi muayyan borliq sifatida yuzaga kelgan dunyo qarashdir. Mifologik dunyoqarashga ko'ra bu olam boshqa dunyolar bilan o'ralgan ularning barchasi insoniyat bilan muayyan darajada bog'langan hamda o'sha borliqning kuchlari va aloqadorlik munosabatlari odamlar yashaydigan olam va insonning o'ziga faol ta'sir ko'rsatadi. Mifologik obrazlar o'z navbatida insonlarning dunyo qarashiga ham ta'sir qiladi. Dunyoqarashning mohiyati shundaki, u faqat insongagina xos bo'lib, hayotiy tajriba va emperik bilimlar asosida shakllanadi. Dunyoqarash hayot bilan bog'liq mifologik, diniy, badiiy, siyosiy, ilmiy qarashlarini o'zida aks ettiradi. Mif va din falsafa va fan dunyoqarashining dastlabki shakllari bo'lib unda shubhaga o'rin yo'qdir. Garchi bu miflar ibtidoiy jamiyat iqtisodiy taraqqiyotning pastligi va inson bilimining zaifligi tufayli vujudga kelgan bo'lsa ham, lekin ular kishilarni xayotni sevishga, xar qanday ishda g'olib chiqishga yo'llar va insonning kuch – qudratini ulug'lar edi. Miflarning ahamiyati ham shundadir. A.M.Gorkiy Sovet yozuvchilarining Butun ittifoq birinchi se'zdida qilgan dokladida bunday degan edi: "Qadimgi miflar va afsonalarning ma'lum ekanligiga shuxa qilmayman, ammo men bu mif va afsonalarning asosiy mag'zini chuqurroq tushinishlaringizni istardim. Bularning asosiy g'oyasi

qadimgi davrlardagi mehnat kishilarning yukini yengillashtirishga, ularning ish unumini oshirishga, to'rt oyoqli va ikki oyoqli dushmanlarga qarshi qurollanishlariga hamda so'z kuchi – "avrash", "afsun" yo'li bilan tabiatning kishilarga xatarli bo'lgan hodisalariga ta'sir etishlariga qaratilgan. "Mifologik maktab"ning rivojlanishi natijasida XIX asrning o'rtalariga kelib folklorshunoslikda bir qator yangi nazaryalar yuzaga keldi. Jumladan miflar astronomik yoxud tabiiy hodisalarning allegoriyasi tarzida tasavvur qilishga assoslangan "solyar – meteorologik nazariya" yoki "shamsiy – meteorologik nazariya" (nemis olimlari – A.Kun, M.Muyuller var us olimlari – F.N.Buslayev, L.F.Voevodiskiyar) miflarning xalqning yovuz kuchlar va ruhlar olami to'g'risidagi tasavvurlari tizimi sifatida tushintiruvchi "quyi mifologiya" yoki "demonologik nazariya" (nemis olimlari – V.Shvarst, V.Minxard) ruh xaqidagi qarashlarni tabiatga tadbiq etish asosida yuzaga kelgan. "Mifologik maktab" vakillarining ilmiy tadqiqotlari arxiak miflar haqidagi ilmiy tasavvurlarni boyitish, qadimgi turkiy, hind, eron, german, kelt, slavyan va boshqa xalqlar mifologiyasini keng ko'lamda o'rganish hamda xalq og'zaki badiiy ijodi asarlarini to'plash va tadqiq etish bilan bog'liq ko'gina nazariy muommalarni xalq qilinishiga asos bo'ldi. Bevosita "mifologik maktab" konstepstiyalari asosida, mifologiya folklor va adabiyotni qiyosiy o'rganish yo'nalishi shakllandi. Shuning uchun ham bu maktab ilmiy konstepstiyalari qadimgi miflarni tadqiq etish bugungi kunga qadar muhim nazariy asos vazifasini o'tab kelmoqda.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda mif, afsona, asotir, rivoyat va boshqa qadimgi asarlarda insoniyatni yaxshilikka yetaklash ezigulik asosida tarbiyalash bosh mavzu qilib tanlanganligini ko'ramiz. Bir so'z bilan aytganda bu janrlar tom ma'nodagi didaktik masalalarni qamrab olgan va asrlar davomida avlodlardan avlodga o'tib kelgan. Hozir ham bu noyob asarlar o'z qiymatini yo'qotgan emas. Bu manbalar yozma adabiyotga ham katta xizmat qilib kelmoqda. Mif va mifalogik qarashlar inson ongiga chuqur ta'sir qilib, uni fantastik olamga yetaklaydi va ma'naviy ongiga ozuqa beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. QODIROV, A. (2025). BADIY ASAR TAHLILI VA DIN INTEGRATSIYASI: (Alisher Navoiy ijodi misolida). *Hamkor konferensiyalar*, 1(11), 386-388.
2. Qodirov, A. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *University Research Base*, 857-860.
3. Abdulazizbek, Q. (2024). USLUB ADABIYOTSHUNOSLIKNING MUHIM KATEGORIYASI SIFATIDA. *Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali*, 2(42), 144-149.

4. Qodirov, A., Inomjonova, M., & Olimova, X. (2025). ADABIYOTSHUNOSLIKDA BADIY ASAR TILI VA BADIY NUTQ USLUBI. *Наука и технология в современном мире*, 4(5), 36-38.
5. O'G'Li, Q. A. L. (2023). ADABIYOTSHUNOS USLUBI HAQIDA (DILMUROD QURONOV IJODI MISOLIDA). *World of Philology*, 2(2), 46-50.
6. Kobilova, Z. B. (2021). Amiriy and fazliy. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(9), 271-276.
7. Kobilova, Z. (2022). Image of a Drinker and a Hermit in the Amir Al-Ghazali. *EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION*, 2(4), 173-176.
8. Qobilova, Z. (2020, December). THE ARTISTIC-AESTHETIC EFFECT OF AMIRI'S POETRY SCOPE. In *Конференции*.
9. Haliljonovna, S. K. (2024). PSYCHOLOGICAL POSSIBILITIES OF FORMING INTERESTS IN VISUAL ARTS IN PRESCHOOL CHILDREN. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 12(3), 438-442.
10. Жахонгирова, Тамила; ,ЭВОЛЮЦИЯ НЕГАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ В АНГЛИЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ: СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ,Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi,11,2,18-20,2024,
11. Andreyevna, Jaxongirova Tamila; ,CURRENT TRENDS AND DEVELOPMENT FACTORS IN THE APPLICATION OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN EDUCATION,Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari,28,1,230-233,2024,
12. Khabibullaeva F.K. The Problem of Adequacy in Russian Translations of A. Kadiri's novel "The Past Days". Toronto. Design Engineering. 2022. – P. 6091-6101.
13. Abdullaevna, K. G. (2024). TRANSLATION CHALLENGES IN SCIENTIFIC AND TECHNICAL TRANSLATION WITH A FOCUS ON TERMINOLOGICAL DICTIONARIES. *Science and innovation*, 3(Special Issue 34), 178-181.
14. Toshboyeva, O. (2024). THE TERMINOLOGY, GENESIS, AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF "BRAND NAMES" IN THE WORLD OF LINGUISTICS. *University Research Base*, 992-995.